

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 589 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIVAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSiya MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSİYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M.Mirsadikov, M.Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSiya QILISH YO'LLARI	385
Boyutrayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIYAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLİYALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSİYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSiya RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSiya TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSİYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	534
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	540
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	



PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDAGI PNEVMOQUVUR TIRSAK MATERIALINI YAXSHILASH ORQALI PAXTA SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH	546
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH	549
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
DEHQON XO'JALIKLARIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK XAVFSIZLIGI VA UNING BAHOLASH USULLARI.....	553
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRILGAN KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY NATIJADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	557
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNING ORTIB BORISHI JAHON MIQYOSIDA JORIY ETILAYOTGAN BUSINESS READY REYTINGIDAGI BAHOLASH NATIJALARIDA YAQQOL NAMOYON BO'LMOQDA.....	562
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA INVESTITSIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.....	570
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI MATERIALLAR ISHLAB CHIQUVISHDA SANOAT CHIQINDILARNI FOYDALANISHNING DUNYO VA O'ZBEKISTON MIQYOSIDAGI HOLATI	574
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
KORXONALAR ISHLAB CHIQUVISH POTENSIALINING XUSUSIYATLARI VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	578
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV SUG'URTA INSTITUTINING RIVOJLANISH ZARURATI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	583
Ravshanova Mohinur O'rolovna	



O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV SUG'URTA INSTITUTINING RIVOJLANISH ZARURATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Ravshanova Mohinur O'rolovna

Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

Email: ravwanova.mu@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda inklyuziv sug'urta institutining shakllanish jarayoni, uni rivojlanishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, xalqaro tajriba hamda milliy bozorning mavjud cheklovlari ilmiy asosda tahlil qilindi. Aholi va kichik biznesning moliyaviy zaifligi, tabiiy va texnogen tavakkalchiliklarning yuqoriligi, sug'urta madaniyatining pastligi sharoitida inklyuziv sug'urtaning joriy etilishi makroiqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Tadqiqot yakunida inklyuziv sug'urta tizimini huquqiy, institutsional, iqtisodiy va raqamli jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: inklyuziv sug'urta, moliyaviy inklyuzivlik, sug'urta bozori, xatar boshqaruvi, aktuar tizimi, raqamli transformatsiya, mikro-sug'urta.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the formation of the inclusive insurance system in Uzbekistan, the socio-economic factors influencing its development, international best practices, and the current limitations of the national insurance market. The findings demonstrate that the introduction of inclusive insurance—under conditions of financial vulnerability among households and small businesses, high natural and technological risks, and low insurance literacy—has a significant impact on macroeconomic stability. Based on the research outcomes, scientifically grounded recommendations were developed to improve the inclusive insurance system in legal, institutional, economic, and digital dimensions.

Keywords: inclusive insurance, financial inclusion, insurance market, risk management, actuarial system, digital transformation, micro-insurance.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы процесс формирования института инклюзивного страхования в Узбекистане, социально-экономические факторы, влияющие на его развитие, международный опыт и существующие ограничения национального рынка. Доказано, что внедрение инклюзивного страхования в условиях финансовой уязвимости населения и малого бизнеса, высокой степени природных и техногенных рисков, а также низкой страховой культуры оказывает существенное влияние на макроэкономическую стабильность. По итогам исследования разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию системы инклюзивного страхования в правовом, институциональном, экономическом и цифровом измерениях.

Ключевые слова: инклюзивное страхование, финансовая инклюзия, страховой рынок, управление рисками, актуарная система, цифровая трансформация, микрострахование.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo moliya bozorlarida moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga qaratilgan yangi konsepsiyalar, xususan, inklyuziv sug'urta institutining ahamiyati ortib bormoqda. Inklyuziv sug'urta past va o'rta daromadli aholiga, kichik biznesga hamda nozik ijtimoiy guruhlariga moliyaviy himoya taqdim etuvchi, iqtisodiy jihatdan maqbul mahsulotlar majmuini anglatadi. Jahon banki, IAIS va ILO ma'lumotlariga ko'ra inklyuziv sug'urta moliyaviy barqarorlikni oshirish, kambag'allikni qisqartirish va tabiiy ofatlar oqibatlarini yumshatishda muhim mexanizm sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston sharoitida aholining moliyaviy zaifligi, sug'urta qamrovining pastligi va yuqori xatarlarning mavjudligi inklyuziv sug'urtaning joriy etilishini strategik zaruratga aylantiradi. Ushbu tadqiqot doirasida inklyuziv sug'urta deganda past va o'rta daromadli aholi qatlamlari hamda kichik va xususiy biznes subyektlari ehtiyojlariga moslashtirilgan, ularga iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lgan sug'urta xizmatlari majmui tushuniladi. Bunday yondashuv moliyaviy himoyaga ega bo'lmagan guruhlar uchun barqarorlik tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv sug'urta instituti bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar aholining past daromadli qatlamlarini moliyaviy himoyalash, xatarlarni yengillashtirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ushbu mexanizmning beqiyos ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Jahon banki tadqiqotchilari Craig Thorburn va Brigitte Klein o'z izlanishlarida inklyuziv sug'urtaning asosiy funksiyasi sifatida xonadonlar va kichik biznesning moliyaviy zaifligini kamaytirish, shuningdek, tabiiy ofatlar oqibatidagi zararlarni davlat zimmasidan bozor mexanizmlariga o'tkazish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining Social Finance bo'limi olimlari, xususan, Michael J. McCord va Stefan W. Dercon tomonidan o'rganilgan mikro- va inklyuziv sug'urta modellarida moliyaviy himoya mexanizmlarining kambag'allikni qisqartirishdagi bevosita ta'siri qayd etiladi. Ayniqsa Derconning Afrika mamlakatlaridagi empirik ishlanmalari sug'urtaning iqlim xavflarini yumshatishdagi rolini namoyish etadi.

IAIS (International Association of Insurance Supervisors) ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan Inclusive Insurance Access Framework global miqyosda tartibga solish, nazorat qilish va iste'molchilarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish inklyuziv sug'urta bozorlarining barqaror rivojlanishi uchun zarurligini asoslaydi. Bunda prudensial nazoratning soddalashtirilgan variantlari, shaffof tarif siyosati va arzon mahsulotlarning raqamli kanallar orqali taqdim etilishi markaziy o'rinni egallaydi. BMT Taraqqiyot Dasturi va Munich Re Foundation tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda digital platformalar orqali sug'urta xizmatlarini kengaytirish moliyaviy inklyuzivlik darajasining oshishiga bevosita ta'sir qilishi qayd etilgan.

O'zbekiston bo'yicha mavjud ilmiy va amaliy tadqiqotlar ham inklyuziv sug'urta instituti rivojlanishining zarurligini ko'rsatadi. Markaziy bank, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Jahon banki bilan hamkorlikdagi milliy diagnostika natijalari aholining moliyaviy zaifligi, tabiiy xavflarga yuqori ta'sirchanlik va sug'urta qamrovining yetarli darajada emasligi sababli inklyuziv sug'urtaning joriy etilishi iqtisodiy barqarorlik uchun strategik ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Masalan, iqtisodchi Saidkamol Khodjayevning moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlari majburiy va ixtiyoriy sug'urta bozorida raqobatning pastligi, aholining sug'urta savodxonligi yetarli emasligi va tariflar oshkoraligiga oid muammolarni ko'rsatadi. O'zbekiston sug'urta bozorini tahlil qilgan Valeriy Klyachko va Sergey Shokin iqtisodiy islohotlar sharoitida ijtimoiy himoya tizimining bozor tamoyillariga mos ravishda takomillashishi zarurligini ta'kidlaydi, bunda inklyuziv sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy risklarni yengillashtiruvchi muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

Global ilmiy manbalarda iqlimga sezgir mamlakatlarda indeks sug'urtasi, agro-sug'urta va mikro-sug'urta modellari samaradorligi alohida o'rganilgan. Ulardagi eng muhim natijalardan biri Joseph Stiglitz va Jonathan Morduch tomonidan qayd etilgan kredit-sug'urta bog'liqligidir. Ularning fikricha, samarali sug'urta tizimi kredit bozorlarining kengayishiga, kichik tadbirkorlik faoliyatining barqarorlashuviga va umumiy iqtisodiy o'sish jarayonining tezlashuviga xizmat qiladi. Munich Climate Insurance Initiative tomonidan e'lon qilingan ilmiy tahlillarda esa iqlim risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari sifatida iqlim indekslari asosidagi sug'urta mahsulotlarining ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar inklyuziv sug'urta institutining iqtisodiy tizimning barqaror ishlashi, kambag'allikni kamaytirish, iqlim va tabiiy ofatlarga chidamlilikni oshirish, davlat budjeti yukini yengillashtirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish bo'yicha strategik vosita ekanini isbotlaydi. O'zbekistonning demografik tarkibi, iqtisodiy liberallashtirish jarayoni va yuqori xavf zonalarida joylashganligi ushbu institutni joriy etishni nafaqat ijtimoiy talab, balki makroiqtisodiy zaruriyat sifatida taqdim etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot komparativ tahlil asosida xalqaro modellar bo'lgan DASK, EQC va PAID tizimlarining tuzilishi hamda samaradorligi bilan milliy amaliyot o'rtasidagi farqlarni aniqlash orqali olib borildi. Statistika agentligi, Markaziy bank va Iqtisodiy taraqqiyot vazirligining 2020–2025 yillarga oid rasmiy ma'lumotlari statistik tahlil orqali qayta ishlanib, bozor hajmi, sug'urta qamrovi va xavf zonalarini dinamikasi baholandi.

Deduktiv va induktiv yondashuvlar milliy muammolarni aniqlash, ularni nazariy asoslar bilan uyg'unlashtirish hamda umumlashtirilgan ilmiy xulosalar chiqarishda qo'llandi. Institutsional tahlil orqali sug'urta bozorining infratuzilmasi, tartibga solish mexanizmlari, ishtirokchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va mavjud institutsional cheklavlarning ta'siri baholandi. Risk-tahlil metodlari tabiiy va texnogen xavflarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, ularning uy-joy sug'urtasiga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishi hamda bozor mexanizmlariga ta'sirini chuqur o'rganishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yil holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari inklyuziv sug'urta institutiga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganini tasdiqlamoqda. Kambag'allik darajasi 2020-yildagi 15



foiz ko'rsatkichdan pasaygan bo'lsa-da, 2024-yil yakuni bo'yicha hamon 11,3 foiz atrofida saqlanib qolmoqda [Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari]. Aholining daromadlari tarkibi esa kreditga bog'liqlikning yuqoriligi, iste'mol xarajatlarining katta ulushi va moliyaviy zaxiralarning yetishmasligi bilan tavsiflanadi.

Markaziy bankning 2024–2025-yillardagi moliyaviy barometr tadqiqotiga ko'ra uy xo'jaliklarining 38–40 foizi oyiga 2–4 million so'm, 22 foizi esa 4–6 million so'm daromadga ega. Aksariyat oilalar maishiy texnika, avtomobil va telekommunikatsiya vositalari bilan yaxshi ta'minlangan bo'lishiga qaramay, ularning mulki sug'urtalanmagan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2025-yil boshida 100 ta uy xo'jaligiga 50 ta yengil avtomobil, 96 ta televizor, 92 ta kir yuvish mashinasi va 78 ta konditsioner to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ham shunga o'xshash vaziyat kuzatiladi. 2025-yil boshida mamlakatdagi kichik tadbirkorlarning 62 foizdan ortig'i individual tadbirkorlar, qariyb 17 foizi mikrofirmalar va kichik korxonalardir (1-jadval).

1-jadval. Kichik va xususiy biznes subyektlarining faoliyati tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi (2025)¹

Tarmoq	Foiz
Qishloq xo'jaligi	9,5%
Sanoat	21%
Qurilish	11,5%
Savdo va ovqatlanish	33%
Yuk tashish	5,4%
Boshqa tarmoqlar	19,6%

Aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy faolligi asosan qishloq xo'jaligi, savdo, xizmat ko'rsatish va qurilish sohalarida jamlangani sug'urta xizmatlari uchun istiqbolli bozor segmenti shakllanayotganini ko'rsatadi. Majburiy sug'urta turlarining ulushi katta bo'lgani esa sug'urtaning kredit jarayonlarida qo'llanishi yillar davomida shakllangan amaliyot bo'lib, uni bosqichma-bosqich moliyaviy boshqaruv vositasi sifatida kengroq tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yo'nalishda risklarni boshqarish madaniyatini oshirish uchun maqsadli dasturlar samarali natija berishi prognoz qilinadi.

O'zbekistonning geologik, iqlimiy va texnogen xatarlar bo'yicha sezilarli xavf zonalarida joylashganligi sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning tizimli oshib borishini ta'minlaydi. So'nggi yillarda Buxorodagi kuchli shamollar, Sardoba hodisasi, tog'li hududlardagi ko'chki xavflari va doimiy seysmik faollik kabi holatlar aholining mol-mulkini barqaror himoya qilishga qaratilgan yangi sug'urta mahsulotlari uchun katta bozor imkoniyatlarini shakllantirmoqda.

2025-yil bozor ko'rsatkichlari sug'urta xizmatlari ulushining bosqichma-bosqich kengayishi uchun katta potensial mavjudligini namoyon qiladi. Hozirgi 0,9 foizlik ulushning kelgusi yillarda 2–3 baravar oshishiga xizmat qiladigan tartibga solish, raqamlashtirish va aholining xabardorligini oshirish bo'yicha dasturlar samaradorlikni sezilarli darajada kuchaytirishi kutiladi.

Aholining sug'urta bo'yicha bilim darajasini oshirish istiqbolda bozor faolligini sezilarli oshirishga xizmat qiladi. So'rovnomalarda aholining bir qismi sug'urta mexanizmlarini yetarli bilmasligi va ishonch pastligini bildirgan bo'lsa, keng ko'lamli moliyaviy savodxonlik tashabbuslari bu jarayonni ijobiy tomonga o'zgartirish salohiyatiga ega. Ishonchni oshirish bo'yicha marketing yondashuvlar, ochiqlik va tezkor ko'rsatkichlar aholining munosabatini barqaror ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin.

Paternalistik kayfiyatning tarixiy omillar bilan bog'liq mavjudligi sug'urta xizmatlarini izohlash va moliyaviy mustaqillik tamoyillarini kuchaytirishga qaratilgan metodik ishlanmalar uchun qo'shimcha zaruratni ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarda davlat tomonidan bosqichma-bosqich bozor mexanizmlariga o'tish aholining sug'urtaga bo'lgan qiziqishini sezilarli oshirishi mumkin.

Sug'urtalovchi infratuzilmasining qishloq hududlarida cheklangani raqamli platformalar va mobil agentlik tizimlarini kengaytirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, arzon polislar bo'yicha onlayn integratsiyani kuchaytirish qamrovni tez oshirishga yordam beradi.

Tariflarning mavjud darajasi esa ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun subsidiya va differensial tariflar joriy qilish orqali yanada moslashtirilgan tizim yaratish imkonini ko'rsatadi. Shaxsiy sug'urta uchun minimal tariflar va ko'chmas mulk sug'urtasi bo'yicha takliflar kelgusida daromad guruhlari bo'yicha segmentlash orqali aholining yanada keng qatlamlariga mos shaklda takomillashtirilishi kutiladi.

Raqamli transformatsiyaning jadallashuvi sezilarli imkoniyatlar yaratmoqda. 2025-yil boshiga kelib 30 dan ortiq sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatiga mobil ilovalar yoki onlayn sotuv platformalarini joriy qilgan bo'lib, bu raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

¹ www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi

Mobil aloqa infratuzilmasining deyarli to'liqligi sababli aholining qariyb 100 foizi mobil telefonlardan foydalanadi, bu esa sug'urta xizmatlarini mobil ekotizim orqali keng ko'lamda yo'lga qo'yish imkonini beradi.


Elektron hukumat tizimlari bilan integratsiya qilish salohiyati ham yuqori. Soliq, bank va kadastr ma'lumotlarining raqamli shaklda mavjudligi sug'urta jarayonlarida ma'lumot almashinuvi, risklarni baholash va xizmat ko'rsatish samaradorligini sezilarli oshirish imkonini yaratadi.

Shu sharoitda inklyuziv sug'urta aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, xususiyl sektorning barqarorligini oshirish va iqtisodiyotda kutilmagan zarbalarni yumshatishning muhim mexanizmlaridan biriga aylanmoqda. Hindiston, Xitoy, Turkiya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar tajribasi inklyuziv sug'urtaning nafaqat ijtimoiy, balki makroiqtisodiy barqarorlikka ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib bermoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda inklyuziv sug'urta bozorining shakllanishiga to'sqinlik qilayotgan institutsional, iqtisodiy, axborot-kommunikatsion va psixologik omillarni aniqlash, ularga ilmiy asoslangan yondashuvlar taklif etish hamda 2025-yil sharoitida uning samarali joriy etilishi uchun konseptual asoslar ishlab chiqish talab etiladi.

Inklyuziv sug'urtaning joriy etilishi bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur segmentning rivojlanishi davlat siyosati, moliyaviy infratuzilma va aholining sug'urta madaniyati darajasiga bevosita bog'liqdir. Turkiya, Yangi Zelandiya, Ruminiya kabi davlatlar misolida shakllangan modellar inklyuziv sug'urtaning turli institutsional yondashuvlar asosida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Turkiya (DASK — TCIP modeli). Turkiyadagi zilzila xavfining yuqoriligi davlat-xususiyl hamkorlik asosida majburiyl sug'urtaning samarali modelini shakllantirdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra DASK orqali sug'urtalangan uylar qamrovi 57 foizdan oshdi (1-rasm).



1-rasm Turkiya (DASK-TCIP) modelining ustunliklari

Yangi Zelandiya (EQC modeli). EQC tabiiyl ofatlarga moyil bo'lgan davlatlar uchun eng barqaror tizimlardan biri hisoblanadi. Tiklanish qiymati bo'yicha baholash, davlat jamg'armasi va qayta sug'urtalash mexanizmlarining uyg'unligi aholiga keng qamrovni ta'minlaydi. 2024-yil holatiga ko'ra qamrov darajasi 80 foiz atrofida.

Ruminiya (PAID modeli). Tabiiyl ofatlardan majburiyl sug'urta tizimi aholini tabiiyl xavflardan himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Qamrov darajasi 22–25 foiz atrofida bo'lib, past ko'rsatkichning asosiy sabablari tariflar va madaniyl omillardir (2-jadval).

2-jadval. Inklyuziv sug'urtaning joriy etilishida xalqaro tajribalar²

Mamlakat	Dastur nomi	Sug'urta turi	Qamrab olinadigan risklar soni va turlari	Maks. sug'urta summasi
Turkiya	DASK (TCIP)	Majburiyl	Zilzila	60,000 \$
Yangi Zelandiya	EQC	Ixtiyoriyl	zilzila, tabiiyl ko'chki, vulqon otilishi, gidrotermal faollik va sunami	150,000 NZD
Ruminiya	PAID	Xususiyl	zilzila, suv toshqini, ko'chki	20,000 €

2 <https://documents.worldbank.org/>... ("Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations")



Xalqaro tajribani umumlashtirgan holda quyidagi omillar O'zbekiston uchun muhim deb baholanadi:

1. Davlat kafolati bo'lgan majburiy sug'urta mexanizmini rivojlantirish;
2. Mustaqil aktuar tizimni joriy etish;
3. Digital platformalar asosida arzon mahsulotlarni kengaytirish;
4. Sug'urta madaniyatini oshirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqish.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv sug'urta mahsulotlarini milliy amaliyotga joriy etish bir qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy samaralarni yuzaga keltiradi. Jumladan, aholining mulkiy himoyasi 2–3 barobarga oshishi, tabiiy ofatlar oqibatida davlat budjeti yukining 20–25 foizga qisqarishi, kichik biznes subyektlarining barqarorligini mustahkamlashi va moliyaviy inklyuzivlik indeksining o'sishiga zamin yaratishi kutiladi. Shuningdek, ushbu mexanizmlar aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini himoyalash orqali kambag'allik darajasining pasayishiga sezilarli hissa qo'shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda inklyuziv sug'urta tizimini institutsional, iqtisodiy hamda texnologik jihatdan rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor takliflar ilgari suriladi.

1. Normativ-huquqiy islohotlar. Inklyuziv sug'urtaning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida "Inklyuziv sug'urta to'g'risida" alohida qonun qabul qilinishi alohida ahamiyatli. Bunda aholining barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya dasturlari bilan funksional integratsiyani kuchaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi mustaqil aktuar baholash institutini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Aholi uchun iqtisodiy rag'batlarni kengaytirish. Sug'urta xizmatlarining ommabopligini oshirish uchun arzon mikro-sug'urta tariflari (0,1–0,3 foiz)ni joriy etish, subsidiyalangan sug'urta mahsulotlarini, xususan qishloq hududlarida amaliyotga tatbiq etish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun davlat tomonidan qo'shimcha moliyaviy kafolatlar taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Raqamli transformatsiya strategiyasini chuqurlashtirish. Sug'urta xizmatlarining qulaylik va shaffofligini ta'minlash uchun mobil ilovalar orqali polislarni to'liq onlayn rasmiylashtirish tizimini joriy etish, davlat xizmatlari portali bilan to'liq integratsiyani amalga oshirish va da'vo jarayonlarida sun'iy intellekt hamda geokartografiya texnologiyalaridan foydalanish zarur.

4. Sug'urta madaniyatini oshirish va ijtimoiy ongni shakllantirish. Aholining moliyaviy savodxonligini yuksaltirish maqsadida maktab va oliy ta'lim muassasalarida "Moliyaviy savodxonlik" fanini joriy etish, media platformalarda sug'urta bo'yicha muntazam ravishda tushuntiruvchi kontentlar tayyorlash va jamoatchilikka yo'naltirilgan ta'limiy loyihalarni rivojlantirish muhimdir.

5. Kichik biznes subyektlari uchun institutsional qo'llab-quvvatlash. Kichik tadbirkorlikning barqarorligini ta'minlash maqsadida risklarni boshqarish bo'yicha bepul konsalting xizmatlarini yo'lga qo'yish, kredit va lizing mahsulotlari bilan integratsiyalashgan sug'urta paketlarini shakllantirish, qishloq xo'jaligi sohasida esa subsidiya qilingan agrar sug'urta mexanizmlarini keng joriy etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahon Banki. Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations. Washington, DC, 2020.
2. OECD. Financial Inclusion and Insurance Markets: Policy Recommendations. Paris, 2021.
3. International Labour Organization (ILO). Impact Insurance: Protecting the Working Poor. Geneva, 2019.
4. Asian Development Bank (ADB). Microinsurance Development in Central Asia. 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari. (rasmiy veb-sayt ma'lumotlari).
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha statistik to'plamlar. (statistika.gov.uz).
7. Swiss Re Institute. Global Insurance Review and Outlook. Zurich, 2023.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100